

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**ASALARI SUTI AHAMIYATI VA QO'LLANILISH**  
**TEXNOLOGIYASI.**

*Toshkent davlat Agrar universiteti  
Zoojinjeriya fakulteti Asalarichilik yo 'nalishi talabasi  
Rustamova Shaxzodaxon Alisher qizi  
Toshkent Davlat Agrar universiteti  
Zoojinjeriya fakulteti Asalarichilik yo 'nalishi talabasi  
O'ralova Jayrona O'tkir qizi  
[jayronaotkirovna1234@gmail.com](mailto:jayronaotkirovna1234@gmail.com)  
Toshkent Davlat Agrar universiteti  
Zoojinjeriya fakulteti Asalarichilik yo 'nalishi talabasi  
Maxmudova Dilmura O'lmasjon qizi*

**Annotatsiya:** Bu maqolamizda yetti xazinaning biri bo 'lgan asalarilarning noyob va juda foydali mahsuloti bo 'lgan asalari suti haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Bundan tashqari oiladagi ichki muhit, yashash sharoiti, arilarning oiladagi vazifalari va bir biriga bo 'lgan munosabatlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Asalari suti ona asalari yetishtirishda va erkak, ishchi asalarilar uchun ham lichinkalik davrida istemol qilinadigan ozuqa hisoblanadi. Asalari suti asosan asalari oilasida ona asalariga ehtiyoj bo 'lganda ishlab chiqariladi ya 'ni bu mahsulotdan keng ko 'lamda foydalanish haqida so 'z boradi. Bundan tashqari asalari sutining shifobaxshligi, asalarining boshqa mahsulotlaridan ajralib turishi bilan farq qiladi.

**Kalit so'zlar:** Sifatli ona ari, gulchangi, lichinkalaridan ona asalari yetishtirish, asalar sutining bialogik sitimulyator xususiyati, gipotrofiya va gipotaniya, ayollarda laktatsiya buzulishini davolash, qand, gulikoza, eritrositlar, gemoglobin, glabulinlar miqdori, xolesterin va neytrofillar miqdori, ateroskleroz kasaliklari, miyadagi qon harakati, reproduktiv imkoniyatlari, g 'umbak, lichinka.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Kirish :** Asalari uyasida 20 mingtadan 80- 100 mingtagacha asalarilar bo‘lad [1]. Uya ichida asosan 3 xil asalarilar mavjud bo‘lib : ona asalari , erkak asalari va ishchi asalarilar mavjud . Bitta oilada bitta ona ari, yuzlab erkak arilar va o’n minglab ishchi asalarilar birga yashaydi. Ishchi asalarilar urg‘ochi asal arilar bo‘lib jinsiy a’zosi yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi[3]. Ammo ularda onalik instiki saqlanib qolganligi uchun uyadagi lichinkalarni boqish, ularga g‘amxo‘rlik qilish ularning vazifasiga kiradi. [1] Ona asalari odatda 3-5 yil yashaydi. Lekin ikki yilgacha yaxshi nasl beradi. Ona asalarining vazifasi : tuxum qo‘yish, uyani nazorat qilish va boshqa bir qancha vazifalarni bajaradi. Ona asalari aprel-may oylarida eng ko‘p tuxum qo‘yadi[4]. Bir tuxum qo‘yish uchun taxminan 20 sekunt vaqt ketadi[2]. Bir kunda 1500-2000 atrofida tuxum qo‘yadi. Erkak asalarilar uyada hech qanday vazifa bajarishmaydi,yani trutenlar hisoblanadi. Ular asosan oilada ona asalarilarni urug‘lantirish uchun kerakdir. Qishga kelib erkak asalar uyadan ishchi asalarilar tarafidan quviladi ya’ni xaydalanadi[4]. Oila ichida oz miqdorda erkak asalarilar qoladi, bundan maqsad uyadan erkak asalarilar xidi kelib turishi uchun ularni qoldirishadi ya’ni uyadagi muozanatni narmallashtirib turish maqsadida bu ish qo‘llaniladi. Ishchi asalarilar esa oz navbatida yana bir nechta guruxlarga bo‘linadi .Masalan: Asal yig‘uvchilar , tarbiyalovchilar, uya tozalovchilar, quruvchilar , uyani issiqlik yoki sovuqlikliga qarovchi ya’ni haroratni bir meyorda ekanligini nazorat qilib turuvchi ishchi asalarilar, ma’lumot to‘plovchi asalarilar va boshqalar. Asalari suti ishchi asalarilar tarafidan ishlab chiqariladigan foydali, tarkibi jihatidan juda murakkab bo‘lgan sutsimon suyuqlikdir.



## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Foydali xususiyatlari:** Asalari suti biologik stimulyator xususiyatga ega bo‘lgan gipotrofiya va gipotaniya kasalliklarini, ayollardagi laktatsiya buzulishini davolashda , sirkasidan oziq –ovqat sanoatida turli tuzlamalar tayyorlashda ishlatiladi. Asalari suti organizdagi hujayralarni o‘sishini tezlashtiradi[4]. Qand eritrasitlar , glukoza , gemoglobin, glabulinlar miqdorini ko‘paytirib, xolisterin va neytrafillar miqdorini kamaytirish , ateraskleroz kasalligini oldini oladi va davolaydi. Jinsiy imkoniyatni rivojlatirib organizimning reproduktiv imkoniyatlarini yaxshilaydi. Asalari suti yuqori immun tizimini mustahkamlaydi , organizmni to‘liq ishlashini rag‘batlantiradi, hamda qon aylanish sistemasini yaxshilaydi. Asalarilar oilasida lichinkalarni boquvchi arillar mavjud bo‘lib, boquvchi arilar avvaliga barcha qurtchalarni uch kun bir xil sut bilan boqadi hamda ona , ishchi yoki erkak ariligidagi va oziqlanish ratsioniga va kun miqdoriga qarab o‘zgaradi. Faqat ona asalari qurtchasini sut bilan tinimsiz boqishda davom etiladi[1]. Shu sababli ona ari qurtchasing vazni birinchi 6 –kunlikda 2500 martagacha kattalashadi. Ona arining sut bilan boqilishi butun umir davom etib , bu unga kuniga o‘z tana vaznidan yuqori bo‘lgan 1800-2500 donagacha tuxum qoyish imkonini beradi[2]. Asalari suti shu sababli ham oxirgi vaqtida bialoogiya va meditsina sohalarida ona ari sutiga bo‘lgan talab ortmoqda. Asalari suti tarkibida 66% suv , 9 xil fermentlar 40% ni tashkil etadi[2]. Glukoza , maltoza , saxaroza , fruktozalar o‘rtacha 21%. Arganik kislotalar 21 ta amino kislota 2 ta nuklein va to‘yingan va to‘yinmagan 20 ta oksikarbonat kislotalar uchraydi[2]. Bulardan tashqari 16 xil mineral elementlar, 9 xil vitaminlar bor[2]. Asalari suti oq, sariq va yaltiroq krem ko‘rinishiga ega, o‘ziga xos hid hamda nordon va achchiq ta’mga egadir. Ko‘pchilik davlatlarda asalari sutidan 20 xil apikal , vitaminlar, dori darmonlar tayyorlanadi. Asalari suti uzoq saqlab bo‘lmaydi, ya’ni shifobaxshligini hamda bir qancha kerakli bo‘lgan xususiyatlarini yo‘qotadi, ammo quritilgan asalari sutini 2 yilgacha saqlash mumkin[2].

**XULOSA :** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki asalari suti juda foydali,ya’ni noyob mahsulot bo‘lib, u nafaqat asalari oilasidagi lichinkalarni boqishda , bundan tashqari ona ari yaxshi tuxum qo‘yishida va nasl sermahsul

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

bo‘lishi uchun juda kerakli mahsulot hisoblanadi. Bundan tashqari insonlarda kuzatiladigan jinsiy, ginekologik muamollarni hal qilishda ham juda katta yordami tegmoqda. Ko‘plab insonlar hayotida uchraydigan eng dolzarb masala bo‘lgan farzandsizlik muamollarida ham asalari sutidan foydalanib, bu muammolarga yechimlar topilmoqda. Bu mahsulotni ishlab chiqarishni keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yish juda muhimdir. Xalqimizga bu mahsulotni yetkazib berish biz tadbirkorlarning oldimizga qo‘yilgan eng katta maqsadlardan biri bo‘lishi zarurdir.

### **Foydalaniqan adabiyotlar :**

1. Asalarichilik Asoslari o‘quv qo‘llanmasi Toshkent – 2021.
2. B. A. Qahromonov, F. A. Safarov, S. I. Isomuhammedov, X. A. Danayev, B. B. Ergashevlar bu sohada olib borgan ishlari.
3. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil noyabr oyida PQ - 2237 sonli qarorida”
4. Azizova N, Maxmadiyarova O, Qo‘ldosheva F, To‘rayev O. Sun’iy usulda ona asalari yetishtirishda sumalak suvini ona asalari vazniga ta’siri. Chorvachilik bo‘yicha respublika ilmiy -amaliy konferensiya materiallari . Samarqand, 2019 , 79-81 betlar.
5. Azimova D.U 2022-yi “Asalarilarda uchraydigan nozematoz kasalligini oldini olishda pirobiotiklarni samarasini o’rganish” bo‘yicha olib borgan ishlari.